

## DEMARCATION OF JIZZAKH REGION AND ITS GAT ANALYSIS

**Bakhtiyor Ya. Zikirov**

*Lecturer*

*Jizzakh State Pedagogical University  
Jizzakh, Uzbekistan*

**Bekzod B. Khakimov**

*Lecturer*

*Jizzakh State Pedagogical University  
Jizzakh, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Natural geographic location, geographic coordinate, internal and external boundaries, cross-section.

**Received:** 25.05.23

**Accepted:** 27.05.23

**Published:** 29.05.23

**Abstract:** Jizzakh region is a region located in the central region of our country, it is distinguished by its natural geographic location, internal and external borders. In this article, the geographic location of the Jizzakh region, the borders with the bordering areas, the coordinates of the edge points, the distance from north to south and from west to east, and the transfer of profiles according to this distance were studied and analyzed using the GAT program. done

## JIZZAX VILOYATI CHEGARALANISHI VA UNING GAT TAHLILI

**Baxtiyor Ya. Zikirov**

*O'qituvchi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Jizzax, O'zbekiston*

**Bekzod B. Xakimov**

*O'qituvchi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Jizzax, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Tabiiy geografik o'rın, geografik koordinata, ichki va tashqi chegaralar, ko'ndalang profil.

**Annotatsiya:** Jizzax viloyatining mamlakatimizning markaziy hududida joylashgan viloyat bo'lib, o'zining tabiiy geografik o'rni, ichki va tashqi chegaralaralanishi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada Jizzax viloyatining geografik o'rni,

chegaradosh hududlar bilan bo‘lgan chegaralar, chekka nuqtalari koordinatalari, shimoldan janubga va g’arbdan sharqqacha bo‘lgan masofasi va shu masofa bo‘yicha profillarining o‘tkazilishi GAT dasturi yordamida o‘rganilgan va tahlil qilingan.

## ДЕМАРКАЦИЯ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЕ АНАЛИЗ

**Бахтияр Я. Зикиров**

*преподаватель*

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Джизак, Узбекистан*

**Бекзод Б. Хакимов**

*преподаватель*

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Джизак, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Природно-географическое положение, географические координаты, внутренние и внешние границы, разрез.

**Аннотация:** Джизакская область – регион, расположенный в центральном районе нашей страны, отличается своим естественным географическим положением, внутренними и внешними границами. В данной статье были изучены и проанализированы географическое положение Джизакской области, границы с соседними областями, координаты краевых точек, расстояние с севера на юг и с запада на восток, а также перенос профилей по этому расстоянию с помощью программы GAT.

### KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatlarni va uning ma’muriy birliklarini zamonaviy dasturlar yordamida o‘rganish, tahlil qilish va kartalarini ishlab chiqishda geoaxborot tizimlari (GAT) dasturiy vositalari yordamida amalga oshirilmoqda. Natijada, ma’muriy hududning chegaralari, chekka nuqtalari va ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha aniq profil o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bunda tanlangan ma’muriy hududlarning raster va vektor ma’lumotlar bazasi olinib, ular qayta ishlanadi, atributlarini hosil qilish orqali tadqiqotlar olib boriladi. Olingan ma’lumotlar, joydagi kuzatish natijalari hamda avval olingan kartografik tahlillar bilan solishtiriladi.

### ASOSIY QISM

Jizzax viloyati O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat bo‘lib, Respublikaning markaziy qismida joylashgan. U bevosita Qozog’iston va Tojikiston Respublikalari bilan hamda Sirdaryo, Navoiy, Samarqand viloyatlari bilan chegaralanadi. Hududiy joylashuviga ko‘ra viloyat O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy jihatdan rivojlangan sharqiy va shimoli-sharqiy Toshkent,

Farg'ona vodiysi kabi asosiy mintaqalari bilan g'arbiy va janubiy mintaqalari sanalgan Qoraqalpog'iston-Xorazm, Buxoro-Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryolarni tutashtirib turuvchi asosiy yo'l ustida joylashgan.

Viloyat shimoliy yarimsharning  $39^{\circ}31'50''$  va  $41^{\circ}10'55''$  shimoliy kengliklar oralig'i hamda sharqi yarimsharning  $66^{\circ}39'8''$  va  $69^{\circ}01'27''$  sharqi uzunliklari orasida joylashgan. Viloyatning deyarli markazida, Jizzax shahridan sharqda va Sharof Rashidov tumanining sharqi qismida  $68^{\circ}$  sharqi meridian bilan  $40^{\circ}$  shimoliy parallel kesishgan. Shu nuqtadan viloyat hududi kenglik bo'yicha shimolga  $1^{\circ}10'55''$  masofaga, janubga  $0^{\circ}28'10''$  masofaga cho'zilgan bo'lsa, sharq tomon  $1^{\circ}1'27''$  masofaga, g'arb tomon  $1^{\circ}20'52''$  masofaga cho'zilgan.

Viloyatning tabiiy chegaralanishida asosan relyef, suv havzalari muhim omil sanaladi. Viloyatning janubiy qismi tog' va tog'oldi hududlariga to'g'ri kelib, chegara asosan viloyatning janubiy qismidagi tog'larning suvayirg'ichlari orqali o'tadi.

Shimoliy hududlari asosan tekislik bo'lganligi uchun viloyatning umumiy chegarasini deyarli yarmi 500 m gacha bo'lgan tekisliklardan o'tadi. Navoiy viloyati bilan Aydarko'lning suvli yuzasi orqali 24,6 kmli masofada dengiz sathidan 241-245 metrgacha bo'lgan balandliklar bilan chegaralangan.

Aydarko'lning shimoliy qismidagi hududlar 250 metrdan yuqori va bu balandlik Jizzaxning Qozog'iston bilan chegaralangan qismi 300 m li izogipsga to'g'ri keladi. Faqat Chordara suvombori to'g'onidan o'tgan chegaraning uzunligi 1,6 km va bu arning dengiz sathidan balandligi 250 m ni tashkil etadi.

Viloyat janubda Tojikiston Respublikasi bilan Turkiston tizmasining suvayirg'ichi orqali chegaralansa, janubi-g'arbiy va g'arbiy tomondan Samarqand viloyati bilan G'ubdintog', Qorachatog' va Nurota tizmalarining markiziyligi qismi suvayirg'ichlari orqali chegaralanadi.


Shu sababdan viloyatning janubiy chegarasi bo'ylab bir qancha tog' cho'qqilari va dovonlarni uchratish mumkin. Masalan, Turkiston tizmasidagi Shavkartov cho'qqisi (4029 m), Bozorxonim (3401 m), Chashmardak cho'qqisi (3108 m) va Shaxriston (3378 m) davoni, Chashmardak (2870 m) davoni, Qo'shtepa (2707 m) davoni, Lattaband (1995 m) davonlari shular jumlasidan.

Turkiston tizmasi suvayirg'ichi orqali o'tuvchi chegara Shaxriston davonidan boshlanib Qo'shtepa dovoniga qadar shimoli-g'arbiy yo'nalish bo'ylab davom etadi. Shu yerdan chegara suvayirg'ich bo'ylab janubi-g'arb tomonga yo'nalib, Zarafshon daryosi o'zanida Samarqand viloyati bilan Tojikiston o'rtasidagi chegara yaqinida tizma pasayib qolgan joydan, chegara yana shimoli-g'arbgan burilgan. Shu yo'nalish orqali chegara G'o'bdintog'ga yetib boradi va yana suvayirg'ich orqali bir oz g'arbgan tomon burilib, G'o'bdintog' tog'igacha shimoli-g'arb tomon burilib avval Qorasuv suvomboriga va Qaroqchitog' orqali Nurota tizmasiga yo'nalgan.

Qaroqchitog'ning shimoli-sharqiy qismidagi Qo'ytosh tog'lari to'liq Jizzax hududida joylashgan. Qaroqchitog'dan o'tgach chegara shimol tomonga Nurota tizmasiga yo'nalib, Nurota tizmasining janubiy yonbag'rida oquvchi Nakurtsyoning boshlanish qismida Suvayirg'ichga tutashadi. Bu yer Nurota davlat qo'riqxonasining sharqiy chekkasiga to'g'ri keladi va shu yerdan chegara g'arba yo'naladi. Shu yo'nalishda Navoiy viloyati chegarasiga qadar tizmaning suvayirg'ich bo'yab borib, Hayotboshi cho'qqisining g'arbidan boshlanuvchi Majrumsoyning yuqori oqimidan chegara shimolga yo'naladi va shu yo'nalishda Aydarko'l havzasiga tutashadi. Chegaraning bu qismi viloyatning eng murakkab chegara qismini tashkil etadi.

GAT texnologiyalari asosida viloyat chegarasi bo'yab relyef profili shakllantirildi va unga ko'ra viloyatning umumiy chegarasi 982,38 km ni tashkil etgani holda umumiy chegaraning 500 metrdan baland bo'lgan hududlardan o'tuvchi chegaraning uzunligi 518,34 km ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich umumiy chegaraning 52,7 % ini tashkil etdi. Shunga muvofiq 464,04 km li masofa tekislikka to'g'ri keladi va umumiy chegaraning 47,3 % ini tashkil egalladi.

Viloyatning chegarasi bo'yab o'tkazilgan profil turli balandliklar bo'yicha chegara uzunligini aniqlash imkonini berdi(1-jadval, 1-rasm).




**1-rasm. Jizzax viloyatining hududiy chegaralanishi va chekka nuqtalari**  
Ushbu karta muallif tomonidan ishlab chiqildi.

### 1-jadval

#### Jizzax viloyatining chegarasi bo'yab o'tkazilgan ko'ndalang profili ko'rsatkichlari

Relyef balandliklari	Chegara uzunligi (km)
500 m gacha	464,04
500-1000	211,72
1000-2000	164,86
2000-3000	66,92
3000-4000	74,72
4000 va undan baland	0,117

### JIZZAX VILOYATI CHEGARASI BO'YLAB O'TKAZILGAN KONDALANG PROFIL



### Jizzax viloyatining ichki va tashqi chegara uzunligi

<b>Jizzax viloyati chegaradosh hududlar nomi</b>	<b>Chegara uzunligi (km.da)</b>	<b>Chegara uzunligi (umumi chegara uzunligiga nisbatan foizda)</b>
Sirdaryo viloyati	118,91	12,10
Navoiy viloyati	95,77	9,75
Samarqand viloyati	221,79	22,58
Tojikiston, So‘g‘d viloyati	333,44	33,94
Qozog‘iston, Turkiston viloyati	212,47	21,63
<b>Jizzax viloyatining umumiy chegara uzunligi</b>	<b>982,38</b>	<b>100,00</b>

Jadvaldan ma’lum bo‘ldiki viloyatning har bir chegaradosh hududlari ilan chegaralanish masofasi har xil. Bu chegaralanishni avvalo ichki (O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi hududlar bilan) va tashqi (qo’shni Respublikalar bilan) chegaralanishga ajraish mumkin. Bunday tasnifa ko‘ra viloyatning tashqi chegaralari, ichki chegaralariga nisbatan uzunroq masofani tashkil etadi(-rasm)


Jadvalni alohida tahlil etganimizda Jizzax viloyatini tashqi chegaralarining umumiy uzunligi 545,91 km yoki umumiy chegara uzunligining 55,57 % ini tashkil etsa, ichki chegaralarining umumiy uzunligi 436,47 km yoki umumiy chegara uzunligining 44,43 % ini tashkil etganligini ko‘rshimiz mumkin.

### XULOSA

Tashqi chegaralari viloyatning Tojikiston Respublikasi bilan (chegara uzunligi 333,44 kmli va bu masofa viloyatning ummuviy chegara uzunligini 33,94 foizini tashkil etadi) hamda Qozoqiston Respublikasi bilan (chegara uzunligi 212,47 km va bu umumiy chegra uzunligini 21,63 %ini tashkil etgan) chegaralariga to’g’ri keladi.

Ichki chegaralari deyilganda viloyatning Sirdaryo viloyati bilan (*chegaralanish masofasi 118,91 km va bu masofa viloyatning ummuviy chegara uzunligini 12,10 % ini tashkil etadi*), Navoiy viloyati bilan (*95,77 kmli masofada chegaralanishi va bu masofa viloyatning ummuviy chegara uzunligini 9,75 foizini tashkil etishi*), Samarqand viloyati bilan (*221,79 kmli masofada chegaralanishi va bu masofa viloyatning ummuviy chegara uzunligini 22,58 foizini tashkil etishi*) chegaralanishi ma’lum bo‘ladi (2-rasm).

**Jizzax viloyatiga chegaradosh hududlarning chegaralari uzunligi  
(Jizzaxning umumiy chegarasiga nisbatan foizda)**



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. – Ташкент: Узбекистан, 1978. – 255 с.
2. Фўдалов М. Жиззах вилояти табиати ва уни муҳофаза қилиш. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2014.
3. Джумабоев Т.Ж. Типология пастбищных земель Юго-Западного Узбекистана (на примере бассейн р.Сангзар). – Самарканд: СамГУ, 1981.
4. Исматов Н.И. Чумкортоғ рельефининг баъзи хусусиятлари // Географиянинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд, 2006. 50-51 б.
5. [www.en.wikipedia.org/wiki/Landscape\\_planning](http://www.en.wikipedia.org/wiki/Landscape_planning)
6. <https://uz.geofumadas.com/global-mapper-in-se-va-mal/>
7. <https://ubunlog.com/uz/qgis-geospatial-information-ubuntu/>
8. <https://www.qgis.org/ru/site/>
9. <https://nextgis.ru/>
10. <https://www.arcgis.com/index.html>
11. <https://www.arcgis.com/apps/mapviwer/index.html>